
**NASILLOYEV SUNNAT
SHAVKAT O'G'LI**

TEACHER OF BUKHARA
HISTORY DEPARTMENT;

**SIROCHEVA FERUZA
ZOYIROVNA**

HISTORIOGRAPHY, SOURCE
STUDIES AND HISTORY

RESEARCH METHODS
MASTER'S DEGREE I STAGE



sunnatnasilloev5@gmail.com

**E.K. MEYENDORF. ISSUES OF RESEARCH OF HISTORICAL AND
ARCHITECTURAL MONUMENTS OF BUKHARA IN THE WORK
"JOURNEY FROM ORENBURG TO BUKHARA"**

**Е.К. МЕЙЕНДОРФ. ВОПРОСЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ИСТОРИКО-
АРХИТЕКТУРНЫХ ПАМЯТНИКОВ БУХАРЫ В ТРУДЕ
«ПУТЕШЕСТВИЕ ИЗ ОРЕНБУРГА»**

**E.K. MEYENDORFNING "ORENBURGDAN BUXOROGA SAYOHAT"
ASARIDA BUXORO TARIXIY-ME'MORIY OBIDALARINING TADQIQ
ETILISHI MASALALARI**

Abstract. The article describes the architectural topography of Bukhara (first quarter of the XIX century) by the Russian ambassador and tourist E.K. Meyendorf. It has been scientifically analyzed and researched through sources (memoirs, notes, works, diaries, reports) formed by Meyendorf.

Key words: accounts, mission, memorial, guard, Meyendorf, Ministry of Foreign Affairs, Ash-Sharif, Zarirud.

Аннотация. В статье описывается архитектурный рельеф Бухары (первая четверть XIX века) послом России и туристом Э.К. Мейендорф. Он был подвергнут научному анализу и исследованию с помощью источников (воспоминаний, заметок, работ, дневников, отчетов), сформированных Мейендорфом.

Ключевые слова: счета, миссия, мемориал, охрана, Мейендорф, МИД, Аш-Шариф, Зарируд.

Annotatsiya. Maqolada Buxoro me'moriy topografiyasi (XIX asrning birinchi choragi) Rossiya elchisi va sayyohi E.K. Meyendorf tomonidan shakllantirilgan manbalar (esdalik, qaydnoma, asar, kundalik, hisobot) orqali ilmiy tahlil qilib, tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: qaydnoma, missiya, esdalik, gvardiya, Meyendorf, Tashqi Ishlar vazirligi, Ash-sharif, Zarirud.

- Kirish (Introduction)

Copyright © Author(s). This article is published under the Creative Commons Attribution (CC BY) license. Anyone may reproduce, distribute, translate and create derivative works of this article (for both commercial and non-commercial purposes), subject to full attribution to the original publication and authors. The full terms of this license may be seen at <https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/legalcode>

XIX asrlarda Buxoro xonligi, keyinchalik esa amirligidagi chet el tadqiqotchilarining esdalik, qayd, hamda asarlari alohida tadqiqot obyekti sifatida hozirga qadar o'rganilmagan bo'lsa-da, o'lkadada faoliyat yuritgan xorijlik ayrim tadqiqotchilar asarlari diqqat markazida turgan. Bu manbalarda asosiy urg'u o'z mamlakatlari manfaatiga berilgan bo'lib, Buxoro amirligining ichki siyosatini, iqtisodiyotini, mavjud harbiy qudratini o'rganishdangina iborat bo'ldi deyish asosli emas. Zero, har bir tashrif buyurgan elchi, sayyoh va savdogar eng avvalo o'lkani real va haqqoniy tadqiq etishga kirishgan.

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

XIX asrlarda Buxoro xonligi, keyinchalik esa amirligidagi chet el elchi hamda tadqiqotchilari faoliyati yoritilgan ilmiy adabiyotlarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish maqsadga muvofiqdir:

1. Buyuk Britaniya tarixchi va ilmiy tadqiqotchilari tomonidan yozilgan asarlar.
2. Rossiyada nashr etilgan tarixiy asarlar va yozma adabiyotlar.
3. O'zbekistonda yaratilgan tarixiy, adabiy asarlar va ilmiy tadqiqotlar.

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Maqolani bayon etishda tarixiylik, xolislik, qiyosiy, tanqidiy, mantiqiy semantik va pragmatik tahlil usullaridan foydalanilgan.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results)

1820-yil Rossiya Tashqi ishlar vazirligi martabali maslahatchi A.F. Negrini elchilik rahbari qilib tayinlaydi va Buxoroga jo'natadi. Negrini o'ziga yuklatilgan barcha topshiriqlarni muvaffaqiyatli ado etgan va Buxoro amirligi bilan olib borgan muzokoralari to'g'risida Tashqi Ishlar vazirligiga batafsil hisobot topshirgan. Buxoroga jo'natilgan diplomatik missiya tarkibida harbiylar: gvardiya general shtabi kapitani E.K. Meyendorf va poruchik V.D. Vol'xovskiy, qo'shinni joylashtirish va ta'minlash bilan bog'liq qism poruchigi Timofeyev, Orenburg korpusi podporuchigi Tafaev bilan Artyuxovlar ham bor edi. Ushbu missiya vakillarining esdalik, qaydlari va asarlari orasida E.K. Meyendorfnin "Путешествие из Оренбурга в Бухару" (Orenburgdan Buxoroga sayohat) nomli asari ayniqsa qimmatlidir. Mazkur "Orenburgdan Buxoroga sayohat" asarida, muallif, Buxoroning qisqacha tarixi, uning nomlanishi, undagi muhim voqealar, amirlikdagi tarixiy-me'moriy obidalarining tadqiq etilishi masalalariga alohida e'tibor qaratgan.

A. Byorn o'zining "Путешествие в Бухару" esdaligida Buxoro shahrining poydevori Iskandar Zulqarnayn yoki Buyuk Iskandar zamonlariga to'g'ri kelishini ta'kidlagan bo'lsa [1], E.K. Meyendorf "Buxoro" nomi birinchi marta X asr arab mualliflari tomonidan tilga olinganligini qayd etgan [2]. Egor Kazimirovich tadqiqotchi sifatida Buxoro shahrining qadimiy ekanligini shahar tarixiy-memoriy topografiyasini chuqur o'rganish orqali aniqlash mumkinligini anglaganligi shubhasiz.

Muallif tarixiy binolar haqida fikr bildirib Numishkent deyarli shaharning markazida joylashganligini, u yerda xon saroyi mavjudligini va bu inshoot Buxorodagi eng qadimiy binolardan biri ekanligini qayd etadi [3]. Tadqiqotchi ushbu qo'rg'onni inson qo'li bilan ko'tarilgan tabiiy tepalik

deya ta'diklab, uning balandligi 35-40 sajenni tashkil etishini, tepalik yuzasi konusni hosil qilib, yuqori qismida quyoshda quritilgan g'ishtlardan qurilgan binolar borligini, shuningdek tepalikka yanada muntazam shakl berish uchun qurilgan devorlari ham mavjudligini bayon etgan. E.K. Meyendorfdan ushbu tepalikka nisbatan qiziqishning mavjudligi, hamda, qo'rg'onda oliy hukmdor (har bir chet ellik tadqiqotchi uchun muqarrar qiyinchiliklar hattoki o'limiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan shaxs) qarorgohi joylashganligi sababli uni o'rganishga kirishadi. "Orenburgdan Buxoroga sayohat" asarida inshoot poydevorining atrof diametri taxminan 400-500 qadamni tashkil etishi, binoning asosiy qurilishi Somoniylar davrida amalga oshirilganligi, ko'rinishidan saroy darvozalari Rahimxon (Buxoro amiri) tomonidan 1742- yilda qurilganligi bayon etilgan. Shuningdek, Meyendorf o'z esdaligida mo'g'ullarning Buxoroga kirishi, Temuriylar va Shayboniylar davriga oid o'z fikrlarini keltiradi. "Shahar savdo uchun juda qulay joyda joylashgan bo'lib, u tezda boyib ketdi, so'ngra "varvar"larning ochko'zligini qo'zg'atdi, o'g'irlandi va talandi, so'ngra uni umrining oxirigacha tiklashga imkon bermagan Chingizxon qo'shinlari tomonidan yoqib yuborildi. (1220-yilda Chingizxon qo'shinlari Buxoroni bosib olgach [4], bu yerdagi boyliklar talon - taroj qilingan, ark vayronaga aylantirilgan.) Temur garchi Samarqandni afzal ko'rganiga qaramay, uning davrida Buxoroda ham ko'plab obodonchilik ishlari amalga oshirildi [5]. Temuriylar hukmronligi tugaganidan beri Samarqanddagi o'zbek xonlari Buxoroda o'rnashib oldilar va ularning ba'zilar bu yerda masjid va madrasalar qurishni buyurdilar, shu bilan birga fan va san'atga bo'lgan muhabbatni unutmadilar. Ushbu odat-qadriyatlar ajdodlarimizdan meros, bu ko'chmanchi xalqlarning urf-odatlariga begona". Shuningdek Buxoro shahrining vujudga kelishi va rivojlanishi o'rganish ham tadqiqotchi nigohidan chetda qolgan emas. "Ma'lumki, Sharq xalqlari ko'pincha o'z tarixlarini afsonalar bilan aralashtirib yuborishadi. Buxoroliklar ham o'zlarining poytaxtlarining kelib chiqishi haqida afsonaga ega, ammo bu ba'zi bir haqiqatdan mahrum emas. O'z esdaligida muallif xalq orasida ma'lum bo'lgan bir rivoyatni keltiradi. "Bir vaqtlar Buxoro atrofida ko'plab ko'llar bo'lgan Buxoro shahri Zarafshon daryosining quyi irmoqlaridan birining (yozma tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Zarirudning) ikki qirg'og'ida shakllangan. Baliqlarning ko'pligi sababli baliqchilar boyib ketishdi va tez orada dehqonlarga aylanishdi. Shu munosabat bilan aholi ko'payishni boshladi, kulbalar o'rnini uylar egalladi, shahar paydo bo'ldi: bu Buxoro edi." Darhaqiqat, Buxoro shahri Zarafshon daryosining quyi irmoqlaridan birining (yozma tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Zarirudning) ikki qirg'og'ida shakllangan [6]. Tadqiqotchi Buxoroning "Ash-sharif" ("olijanob yoki avliyo") deya nom olishida sharqning ko'plab fozil kishilari, ilmi mullalari va avliyolari uning devorlariga ko'milgani tufayli hurmat qozonganligini va shu sababdan musulmonlarning ziyoratgohiga aylanganligini asos sifatida keltiradi [7].

Meyendorfnin tadqiqotlari haqida fikr bildirar ekanmiz, uning Buxoro toponimikasi haqida keltirgan ma'lumotlarini ham qayd etish lozim. "Men bitta sharq kitobida mo'g'ul tilida "buh"- "bilim", "ara" - "xazina" ma'nosini anglatishini o'qidim. Shunday qilib, ular Buxoro to'g'risida bu "bilim xazinasi" ekanligini aytmoqchi edilar". (Abulg'oz Bahodirxon bunga o'xshash etimologiyani beradi; "Buxoro" degani bilimdon odam degani, chunki ilm o'rganishni yoki bilim olishni istagan har bir kishi Buxoroga boradi).

Meyendorf XIX asr buxoro tarixiy topografiyasiga oid ma'lumotlarining o'ziga xosligi va ahamiyati – unda yetarlicha bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan tadqiqotchining dala tadqiqotlari orqali, kuzatishlar va xalq bilan muloqot natijasida to'plangan shahar ichki tarixiy topografiyasi, hamda Buxoro shahri umumiy tashqi qiyofasining tasvirlanganligidir.

Tadqiqotchi Buxoro shahri va tashqi chor atrofi xiyobonlar va ko'plab bog'lar bilan qoplanganligi sababli, shahar ichida juda uzoqni ko'rib bo'lmasligini, tashqi tomondan esa bog'

o'rtasidagi shahar sifatida ertakona ko'rinishini, ushbu ko'rinish o'zi kabi istalgan yevropalikni hayratda qoldirishini qayd etadi.

Muallif esdaligi bilan tanishar ekanmiz, bizda shahar o'rtasida ko'tarilgan gumbazlar, masjidlar, madrasalar, minoralar, saroylar, ularning atrofidagi daraxtzorlar, binolar yonida joylashgan suv havzalari va tekis tomli uylar haqida tassavvur gavdalanaveradi.

E.K. Meyendorf o'z esdaligida Buxoro shahri haqida faqat iliq fikrlarni keltirgan deyish haqiqatdan yiroq. Tadqiqotchining yozishicha bog'lar, daraxtlar va ot-aravalar poytaxt yaqinidagi barcha joyda mavjud. Bularning barchasi tashqaridan juda ajoyib ko'rinadi. Ammo bu illyuziya shaharga kirishingiz bilan yo'q bo'lib ketadi, chunki hammom, masjid va madrasalardan tashqari, faqat kulrang peshtoqli binolar ko'rinib turadi, ular noodatiy, tartibsiz tarzda bir-birining yoniga qurilgan.

Qo'shimcha sifatida esa "shaharda gil (tuproq)dan iborat uylar ko'pligini va ularning ko'pchiligi xarobaga aylanganligini, shahar ichida bog'lar kam ekanligini, faqat eski masjidlar qurilishi bilan diqqatga sazovorligini ta'kidlagan [8]".

Shuningdek, E.K. Meyendorf shahar ko'chalari va turar joy binolari haqida ham fikr bildirib nihoyatda tor va chang, shuningdek tekis tarzda yotqizilmagan ko'chalar mavjudligini, fadallari bilan hovliga qaragan uylar esa ko'cha tomondan, derazalarsiz qurilganligini, ko'chalarda faqat bir xildagi tekis devorlarni ko'rish mumkinligini qayd etadi.

Muallif esdaligida bu masalaga alohida to'xtalib, o'z ko'zi bilan ko'rganlarini batafsil keltirgan. Shahardagi eng katta ko'chalar bitta necha sajandan keng emas; kichiklariga esa faqat piyodalar borishi mumkinligi, chunki ularning ba'zilar bitta uyning devoridan qarama-qarshi tomonning devoriga 3-4 qadam masofa bor ekanligi [9]; katta hajmli turli yuklar orilgan tuyalar sababli eng keng ko'chalarda ham o'tib ketayotganlar yo'lovchilar xavf ostida qolishlari mumkinligi; ko'chalarda yurgan ko'plab otlar va tuyalar gohida o'zlarining tartibsizliklarini yanada oshirishlari; ba'zi ko'chalarda esa avvalgi ulug'vorligining qoldiqlari ya'ni tosh yo'llar saqlanib qolganligi haqidagi faktlar shular jumlasidan. Shu o'rinda E.K. Meyendorf odatda ko'chalar buxoriylar, turli maqsadlarda tashrif buyurgan chet elliklar, savdogarlar va ziyoratchilar bilan gavjumligi, ot, tuya yoki eshak minib olgan kishilar esa oldinga siljish uchun doimo "posh, posh" deya baqirib yurishlari kerakligi haqidagi hazilomuz haqiqatni keltiradi.

Buxoroda turar uy-joylar majmuasi 2-3 qismdan tashkil topgan (dorun - ichki, berun - tashqi va uy-ro'zg'or hovlisi) bo'lib, Asosiy turar joy xonalari qishgi va yozgi xonalarga bo'lingan [10]. Buxoro hovllariga pishiq g'isht to'shlangan. Xalq orasida u "g'ishtfarj" deb yuritilgan [11]. Oddiy uylar quritilgan g'ishtdan qurilgan, yog'och bilan bog'langan va sharqona odat bo'yicha har tomondan baland devorlar bilan o'ralgan [12]. Uylar maydalangan somon bilan aralashtirilgan loydan qurilgan. Ushbu aralashmaga ko'proq kuch berish uchun devorlarga 4-5 dyuym qalinlikdagi terak ustunlari, ayniqsa burchaklarga joylashtirilgan (xalq orasida bu qurilish uslubi "quloqchin panjakash" deb ataladi) [13]. Shiftlar odatda qattiq yog'ochdan yasalgan va yuqori yuzasi tuproq va somon aralash loy bilan qoplangan, shunda ular tekis tomlarni hosil qiladi. Uylar cho'pkori, ya'ni sinchli, ko'pincha qo'shsinchli qilib qurilgan [14]. E.K. Meyendorf, turar uy-joylarning ichki ko'rinishi haqidagi ma'lumotlari ham birmuncha qimmatlidir. Esdalikda keltirilishicha, boy xonadonlarda asosiy xonalarning shiftlarida turli ranglarda bo'yalgan taxtalar va uning parchalari bilan bezak berilgan. Oddiyroq odamlarning uylaridagi pollar sopol loydan, boylarning uylarida esa g'ishtdan ishlangan. Fasad va derazalar har doim hovli ichiga qaragan, faqat bitta eshik ko'chaga olib boradi. Derazalar - bu shunchaki yog'och panjaralar bilan yopilgan, ushbu turdagi derazalar juda oz miqdordagi yorug'lik

o'tishiga imkon beradi, xona ichida aniq ko'rish uchun ularni to'liq ochishingiz kerak. Tadqiqotchi Buxorodagi uy-joylarning qurilishishi va me'moriy yechimidagi kamchiliklar sababli kambag'allar va hattoki o'rta hol qatlam vakillari aziyat chekishini nazaridan chetda qoldirmaydi. Chunonchi, qish faslida Buxoroda sovuq harorat ko'pincha -7-8 ° gacha yetadi, pechka bo'lmagan yoki to'la isitilmaydigan, sovuq havo kirib boradigan xonalar sovuq va zax bo'ladi. Shu boisdan ham shaharda, ayniqsa kambag'allar orasida revmatizm ko'p ekanligi va muallif to'la haq ekanligi ajablanarli emas. Tadqiqotchi ushbu vaziyatga yechim sifatida Buxoroliklar o'zlarini sovuqdan qutqarish uchun sandaldan foydalanishlarini qayd etadi. Buxoriylar o'rta asrlarda me'morchilik bobida anchayin shuhrat topganliklarini qayd etsada, hattoki amirlik markazi bo'lgan shaharda zamonaviy memoriy qurilish jihatlari ko'zga tashlanmasligi E.K. Meyendorfnı juda o'ylantirganligi tabiiy. Muallif kichik bir isbot sifatida garchi deraza oynalari Buxoroda ma'lum bo'lsa-da, ular faqat ba'zi uylardagi mavjudligini keltirib o'tadi. Xulosa qilish mumkinki, Boy kishilarning uylari qalin devorli va ko'p xonali uylardan iborat. Shu o'rında E.K. Meyendorf mavjud uy-joylarning bahosi haqida ham ma'lumot keltirib, o'zi yashagan uyning narxi 16000 rublni tashkil etishini, bu mablag' shahar uylari uchun juda katta miqdorda ekanligini aytib o'tadi [15]". Tadqiqotchining fikricha Buxoroda uy qurilishida temir va mix deyarli ishlatilmagan. Shuningdek, ko'p xonalarning tashqari va ichkari tomonlari oqlanganligi, ba'ziları esa bo'yalgan gipsli chizmalar bilan bezatilganligini muallif nazardan chetda qoldirmagan holda asarda qayd etgan. Garchi E.K. Meyendorf Buxoro shahri me'moriy tasnifini san'at asari darajasida baholamagan bo'lsada, XIX asr Buxoro me'morchiligi yutuqlari salmoqlidir. Misol tariqasida me'morlarning ishlarida - binokorlikdagi sharqona an'analar, hamda, fasllardagi turli ob-havo o'zgarishlari (issiq va sovuq) haqidagi bilimlar mujassamlashganligini ko'rishimiz mumkin. Chunonchi, barcha shahar uylari yozning kuchli issiqligini inobatga olgan holda qurilgan. (Issiq haroratni pasaytirish maqsadida tomilar ikki qavatli qilib, g'arbga qaragan tomondagi tashqi devorlar uch qavatli qilib qurilgan [16])Tomning chekkasi yog'och ustunlar bilan mustahkamlangan.

E.K. Meyendorfnı Buxoro darvozalari haqidagi ma'lumotlari ham qimmatlidir. Agarda biz tadqiqotchining ma'lumotlariga tayanadigan bo'lsak Buxoroni o'rab turgan devorning balandligi 4 sajen, qalinligi esa 4 fut atrofida [17]". Devor ustida bir-biridan ma'lum masofada joylashgan dumaloq minoralar bo'lib shinakli burchaklarni hosil qilgan. Tadqiqotchi bu devorlardan birining uzunligi 2 verstdan oshiqroq ekanligi ham alohida ta'kidlaydi, hamda Buxoro devoridagi mavjud jami 11 ta darvozani nomma-nom sanab o'tadi. Bular, Imom, Samarqand, Manazar, Qarshi, Sabaxon, Namozgoh, Shox-Jalol, Qorako'l, Shergiron, Tolpalak va O'g'lon [18] darvozaridir.

Buxoro darvozalari haqida keltirilgan ma'lumotlar aks etgan tarixiy esdaliklarda ularning ketma-ketligi bir xil emas, qolaversa ba'zi darvozalarning nomlari ham bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Jumladan, Manazar [19] darvozasi - I.I.Vitkevich, Xanikov va Poslavskiylarning fikriga ko'ra, Mozor (Mazar) deb, P.I. Demezonga ko'ra esa Mozori Sharif (Mazari Sherif) [20] deya nomlangan. Shuningdek, Sabaxon - Sallaxon yoki Salla-xane; Namozgoh - Namaziga [21] (Xanikov); Shoh-Jalol darvozasi esa P.I. Demezonda hamda I.I.Vitkevich esdaliklarida Shayx-Jalol (Sheyx-Jalol) [22], Xanikovga ko'ra - Shayxi-Jalol; Tolpalak [23] - I.I.Vitkevich esdaligida - Talipodj [24]; P.I. Demezonda, Xanikov va Poslavskiy ma'lumotlariga ko'ra - Talipoch deya atalgan. Darvozalar nomlari bilan bog'liq eng to'g'ri ma'lumotlarni Buxoro rejasini suratga olish bilan shug'ullangan P.T.Poslavskiy bergan. Poslavskiydan 30 yildan ko'proq vaqt o'tgach, bu masala I.I.Umnikov tomonidan o'rganilgan.

Meyendorf, shahar me'moriy topografiyasida mavjud darvozalarning ahamiyatini yetarli darajada anglaganligi shubhasiz. Muallif tomonidan keltirilayotgan ma'lumotlarning aniqligiga nisbatan ishonchimiz, uning dala tadqiqotlari, o'rganishlari natijasida to'planganligi bois o'rinlidir.

Muallif shahar darvozalarini o'rganish jarayonida qaysi qurilish ashyolaridan foydalanganligiga e'tibor qaratgan holda ularning barchasi xom g'ishtdan qurilganligini qayd etadi. Darvozalar oldida turli savdo rastalari, hunarmandlar do'koni, hamda kichik bojxonalar joylashganligi bois shaharning ijtimoiy-iqtisodiy va harbiy strategik ahamiyatga ega qismi bo'lgan. E.K. Meyendorf ma'lumotlariga asoslanadigan bo'lsak darvozalar ikki tomonida dumaloq minoraga ega va odatda ular amir harbiylari tomonidan doimiy qo'riqlangan. Darvozalar quyosh chiqqanda ochilgan va quyosh botganda yopilgan [25]. Shuningdek, Meyendorf esdaligida Buxoro devori, Fors shaharlarining ko'p qismini o'rab turgan devorlarga o'xshashligi; Amir Haydar shahar darvozalarini qayta tiklashni buyurgani, buning natijasida ular ta'mirlanib, yanada balandroq ko'tarilgani; Buxoroda ot minib, bu shaharning atrofi 14 verstga teng ekanligini aniqlagani; shaharda 8000 ga yaqin turar-joylar va 70000 nafargacha aholi mavjudligi, ularning 13/3 qismi tojiklar, asosan hunarmandlar ekanligini haqida ham ma'lumot mavjud. (I.T.Poslavskiy esa Buxoro devorining uzunligi taxminan 12 verst bo'lgan deb hisoblaydi [26])

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

E.K. Meyendorfnings esdaligining ("Orenburgdan Buxoroga sayohat") Buxoro amirligining XIX asrdagi me'moriy topografiyasini o'rganishdagi o'rni beqiyosdir. Ushbu esdalik rus tadqiqotchilari qiziqish doirasiga kiruvchi me'moriy obidalarni o'rganish masalasini o'z ichiga oladi. Buxoro ijtimoiy munosabatlari tarixi doimo birinchi planda turishi barobarida, xorijiy tadqiqotchilar tomonidan me'moriy obidalarni tarixiy topografik, arxeologik, badiiy me'morchilik, maishiy-xo'jalik, madaniy-ma'rifiy, diniy aspektda o'rganish o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Qo'yilgan muammo yuzasidan tarixiy adabiyotlarning qanchalik ko'p bo'lishidan qat'i nazar, ularga tarixshunoslik jihatdan baho berish hali hamon amalga oshirilmagan. Maqolaning o'ziga xosligi ham shunda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References)

1. Борнс А. Путешествие в Бухару. Второй част. 1848 г. –Москва: -С. 423.
2. Мейендорф Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. Предисл. Н. А. Халфина, М., Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1975. -С. 92.
3. Мейендорф Е. К. Кўрсатилган асар, -Б. 92.
4. Azamat Ziyov. "O'zbek davlatchiligi tarixi" (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). – Toshkent.: "Sharq", 2000. –B. 139.
5. Мейендорф Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. Предисл. Н. А. Халфина, М., Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1975. –С. 92.
6. Vaxitov M.M, Mirzayev SH.R. "Me'morchilik. 1- qism Me'morchilik tarixi" Tafakkur nashriyoti – Toshkent.: 2010 -B. 148.

7. Мейендорф Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. Предисл. Н. А. Халфина, М., Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1975. -С . 93.
8. А. Татарина. Семимесячный плен в Бухарии. Издание Маврикия Осиповича Вольфа. Санктпетербург, Москва 1867. -С. 24
9. Мейендорф Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. Предисл. Н. А. Халфина, М., Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1975. С 94
10. D. Nozilov. O'zbekiston xalq me'morchiligi, "Moziydan sado" Toshkent. 2.(66).2015-y. –В. 36-37.
11. M. Ahmedov. Xalq me'morchiligi an'analari, "Moziydan sado" Toshkent. 2.(74).2017-y. –В. 15.
12. Борнс А. Путешествие в Бухару. Второй част. 1848 г. Москва. С. 426-427
13. Мейендорф Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. Предисл. Н. А. Халфина, М., Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1975. 94-б.
14. M. Ahmedov. Ko'rsatilgan manba, o'sha bet.
15. Мейендорф Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. Предисл. Н. А. Халфина, М., Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1975. –С. 95
16. M. Ahmedov. Xalq me'morchiligi an'analari, "Moziydan sado" Toshkent. 2.(74).2017-y. –В. 15.
17. Мейендорф Е. К. Кўрсатилган асар, -Б. 95.
18. Записки о Бухарском ханстве (Отчёты П.И. Демезона и И. Виткевича). – М., Гл. редакция восточной литературы. Из-во «Наука».-1983 -С. 56, -98; Мейендорф Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. Предисл. Н. А. Халфина, М., Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1975. -С . 95; В. Ханькова «Описание Бухарского ханства», Санкт-Петербург, 1843, стр. 79-80; И. Т. Пославского «Бухара. Топографический очерк», - «Военный сборник», 1891, № 12, стр. 456; «Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии», вып. 47, Санкт-Петербург, 1891, стр. 49-50; И. И. Умников «К вопросу об исторической топографии средневековой Бухары», - «Сборник Туркестанского восточного института в честь А. Э. Шмидта», -Ташкент.: 1923, стр. 150
19. Мейендорф Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. Предисл. Н. А. Халфина, М., Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1975. –С. 95.
20. Записки о Бухарском ханстве (Отчёты П.И.Демезона и И.Виткевича). – М., Гл. редакция восточной литературы. Из-во «Наука».-1983. -С. 56.
21. Ханьков Н.В. Описание Бухарского ханства. СПб., 1843. стр. 79-80
22. Записки о Бухарском ханстве (Отчёты П.И. Демезона и И. Виткевича). – М., Гл. редакция восточной литературы. Из-во «Наука».-1983. , -Б. 56.
23. Мейендорф Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. Предисл. Н. А. Халфина, М., Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1975. , -С. 95.
24. П.И.Демезона и И.Виткевича. Кўрсатилган асар, -С. 98.
25. Мейендорф Е. К. Кўрсатилган асар, , -Б. 95.
26. Пославского И. Т. («Бухара. Топографический очерк», - «Военный сборник», 1891, № 12, стр. 456